



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

**12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ**

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

**12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA**

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 347.96(045)(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONNING NUFUZI YUKSALISHIDA YANGI NOTARIATNING O'RNI

Ashurov Dilshod Rustamovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: dilshodjan86@mail.ru

ORCID: 0000-0001-5757-1216

Annotatsiya. Maqolada yangi O'zbekistonning imidjini shakllantirishda "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" davlat dasturi muhim ahamiyat kasb etishi, "Harakatlar strategiyasi"da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish kabi muhim yo'nalishlar bilan bir qatorda notariat sohasini ham isloh qilish masalalari ko'zda tutilgan. O'zbekistonda 2020-yildan boshlab xususiy notariuslarning tashkil etilishi aynan "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarni amalda ijro etilganligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda notariat tizimini isloh qilish, uni sud nizolarining oldini olish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlovchi muhim institutlardan biri sifatida shakllantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Jumladan, birinchi navbatda, sud-huquq sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirishda, shuningdek iqtisodiy, oilaviy, meros, uy-joy, mehnat va boshqa nizolarning oldini olishda notariat institutining salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar aniqlab olindi va ularni bartaraf etish uchun mustahkam huquqiy asoslar va kuchli strategik konsepsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: strategiya, notariat, notaries, nizo, "yagona darcha", xizmat.

МЕСТО НОВОГО НОТАРИАТА В ПОВЫШЕНИИ ИМИДЖА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Ашуров Дильшод Рустамович,

магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Государственная программа «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы» играет важную роль в формировании образа нового Узбекистана. В Стратегии действий рассматриваются такие вопросы, как совершенствование системы государственного и общественного строительства, обеспечение законности и дальнейшее реформирование судебной системы, экономическое развитие и либерализация, развитие социальной сферы, а также реформирование нотариальной сферы. Создание частных нотариусов в Узбекистане с 2020 года подтверждает, что задачи, изложенные в Стратегии действий, выполнены на практике. Сегодня принимаются последовательные меры по реформированию нотариальной системы, предупреждению судебных споров, превращению ее в один из важнейших институтов обеспечения прав физических и юридических лиц. В частности, выявлен ряд системных проблем и недостатков, препятствующих эффективной реализации государственной политики в сфере правосудия, а также полному использованию потенциала нотариата в деле предупреждения хозяйственных, семейных, наследственных, жилищных, трудовых и других конфликтов, и для их разрешения были разработаны сильные правовые рамки и сильные стратегические концепции.

Ключевые слова: стратегия, нотариат, нотариус, спор, «одно окно», услуга.

THE PLACE OF THE NEW NOTARY IN INCREASING THE IMAGE OF THE NEW UZBEKISTAN

Ashurov Dilshod Rustamovich,
Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *The state program "Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021" plays an important role in shaping the image of the new Uzbekistan. The Action Strategy addresses issues such as improving the system of state and society building, ensuring the rule of law and further reforming the judiciary, economic development and liberalization, development of the social sphere, as well as reform of the notary sector. The establishment of private notaries in Uzbekistan from 2020 confirms that the tasks set out in the Strategy of Action have been fulfilled in practice. Today, consistent measures are being taken to reform the notarial system, to prevent litigation, to make it one of the most important institutions for ensuring the rights of individuals and legal entities. In particular, a number of systemic problems and shortcomings were identified, which hinder the effective implementation of public policy in the field of justice, as well as the full use of the potential of the notary in the prevention of economic, family, inheritance, housing, labor and other conflicts, and strong legal frameworks and strong strategic concepts have been developed to address them.*

Keywords: *strategy, notary, notaries, dispute, "single window", service.*

Kirish

Notariat institutining roli va ahamiyatini oshirish, shuningdek, aholiga ko'rsatilayotgan notarial xizmatlarning sifatini yaxshilash maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 25-mayda "Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaror imzolandi.

Qarorga ko'ra, notariatning faol modeli, ya'ni axborot texnologiyalari yordamida notariuslar tomonidan "yagona darcha" tamoyili bo'yicha bitimlarni tasdiqlashda davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilishning ma'muriy reglamentlari qabul qilindi va ular bilan o'zaro axborotlar almashish mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida elektron ma'lumotlar bazasi yaratilib, "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga integratsiya qilindi [1].

Murojaatchilarning notarial harakatlar bajarilganligini tasdiqlovchi imzolarini ularning barmoq izlarini skaner qilish orqali amalga oshirish mexanizmi joriy etildi. Notarius lavozimiga nomzodlarning stajirovka o'tash muddati ikki yildan bir yilga qisqartirildi, notarius lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlab olish jarayonini real vaqt rejimida audio va videotranslatiya qilish amaliyotini joriy etildi.

Notariuslarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv-reja va dasturlariga psixologiya va yuridik faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan tartiblar va ko'nikmalarga (stressni boshqarish, kelishmovchiliklarni boshqarish, ish vaqtini samarali tashkil etish) o'rgatish bo'yicha darslar kiritilishi ta'minlandi [2].

"Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimida notariusning barcha harakatlari yaqqol aks etishi natijasida notariuslar harakatlarini vakolatli idoralar tomonidan onlayn kuzatish imkoniyati yaratildi va qonundan chetga chiqmasligi kafolati oshirildi, onlayn monitoring natijasida noqonuniy xatti-harakatlarni tezkor aniqlash va aybdor notariusga nisbatan tegishli ta'sir chorasini qo'llash amaliyoti yo'lga qo'yildi [3].

Fuqarolarga yaratilgan imkoniyatlardan yana biri – bu elektron navbatning tashkil etilgani bo'ldi. Endilikda fuqarolarimiz notarius huzuriga borishdan oldin "e-notarius.uz" sayti orqali elektron navbatga yozilib, belgilangan vaqtda notarius qabulga borish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu esa behuda navbat kutishdek asab buzarlarning keskin kamayishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi [4].

Yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish maqsadida notariuslarning mulkiy javobgarliklari ham belgilab berildi. Bunda notarial harakatni rasmiylashtirish natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga mulkiy zarar yetkazilgan taqdirda, yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha notarius o'z mulki bilan javobgar bo'lishi qonunchilik bilan mustahkamlab qo'yildi [5].

Shu bilan birga, notariuslarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilinishi majburiy talab sifatida mustahkamlab qo'yildi.

Bular notariat tizimidagi islohotlarning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Material va metodlar

tarixiylik, mantiqiy, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, prognozlash kabi usullar hamda tizimli, funksional yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Notariat sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichi Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5816-sonli Farmoni imzolanishi bilan boshlandi, desak yanqlishmaymiz.

Ikkinchi bosqichning muhim jihatlaridan biri – 2020-yil 1-maydan boshlab notariat sohasi davlat tizimidan chiqarilib, nodavlat tizimiga aylantirildi, O'zbekistonda xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar tizimi o'z faoliyatini boshladi [6].

Jismoniy va yuridik shaxslar uchun qulaylik yaratish maqsadida yaqin qarindoshlar o'rtasida avtotransport vositalarini boshqarishga beriladigan ishonchnomalarni notarial tasdiqlash tartibi, qurilishi tugallanmagan uy-joylarni sotishda mahalliy hokimiyat organlarining ruxsatini olish hamda vasiylikdagi shaxs nomidan turar joyni ijaraga (arendaga) berishda vasiylik va homiylik organining roziligini olish talablari hamda korxonani ijaraga, tekin foydalanishga berish, birlamchi bozorda mol-mulkni lizingga berish va garov (ipoteka) shartnomalarini majburiy notarial tasdiqlash tartiblari bekor qilindi [7].

Bekor qilingan notarial harakatlar o'rniga yangilari joriy etildi. Jumladan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda sudgacha bo'lgan jarayonda dalillarni ta'minlash, mulkiy va meros masalalarida mediatorlik vazifalarini bajarish, mualliflik va turdosh huquq obyektining taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash kabi notarial harakatlar shular jumlasiga kiradi [8].

Aksariyat notarial harakatlarni eksterritoriallik tamoyili asosida rasmiylashtirish imkoniyati yaratildi. Endilikda jismoniy va yuridik shaxslar yashash joyidan qat'i nazar, xohlagan hududda notarial harakatlarni rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

"Masofaviy notariat" tizimi yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra ayrim notarial harakatlarni fuqarolarimiz notarius huzuriga bormagan holda masofadan turib videokonferensaloqa orqali rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Shu bilan birga, notarial arxivda mavjud bo'lgan hujjatlar nusxasini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olish uchun sharoit yaratildi.

Quvonarlisi, ushbu mexanizmlarning amaliyotga tatbiq etilishi – ortiqcha navbat kutish holatlariga barham berishga, vaqt tejalishi va sarf xarajatlarning kamayishiga, aholini sifatli notarial xizmatlardan foydalanishiga, sohada erkin raqobat muhitini shakllantirishga, ortiqcha byurokratiya va korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda [9].

Notariat sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichining yana bir muhim jihatlaridan biri – O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasining tashkil etilganidir. Hozirda mamlakatning har bir hududida Notarial palataning bo'linmalari o'z faoliyatini olib bormoqda.

Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha 900 ga yaqin xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning barchasi Notarial palata a'ziligiga qabul qilindi.

Notarial palataning asosiy vazifalaridan biri – xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning huquq va manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, shuningdek notariat sohasidagi qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hisoblanadi.

Notariatning rolini mustahkamlash, notariuslik kasbi nufuzini oshirish, yagona notarial amaliyotni ta'minlash choralari ko'rish, notarial harakatlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, notariat to'g'risidagi qonun hujjatlariga, notariuslar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya etilishi ustidan monitoringini amalga oshirish, tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan notarial faoliyat masalalari bo'yicha hamkorlik qilish ham tuzilma zimmasida.

O'z vazifalaridan kelib chiqqan holda Notarial palata notariuslarga nisbatan qabul qilingan qarorlarning xolisligi va shaffofligini kafolatlash maqsadida notarius stajyorlarini ishga qabul qilishda, nomzodlardan malaka imtihoni olishda, notariuslarga nisbatan litsenziyalarini to'xtatish va tugatish bilan bog'liq ta'sir choralari qo'llashda bevosita ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunning muhim talablaridan biri har bir sohani raqamlashtirish va sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hisoblanadi. Shu bois O'zbekistonda ham xalqaro tajribani o'rgangan holda "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratilib, notariat sohasi to'liq raqamlashtirildi. Mazkur tizimiga 15 dan ortiq turli davlat idoralari integratsiya qilindi.

Bundan tashqari, axoli uchun notariuslarni izlab topish va ularga navbatga yozilish, kerakli hujjatlar ro'yxatini bilish va to'lov miqdorlaridan xabardor bo'lishlarini osonlashtirish maqsadida "e-notarius" sayti yaratildi.

Shu bilan birga, aholi uchun O'zbekiston notariati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishib borish, Notarial palata faoliyati bilan yaqindan tanishish, kerakli qonun hujjatlaridan foydalanish maqsadida Notarial palata tomonidan o'zining notarialpalata.uz `rb "np.uz" veb-sayti yaratildi.

Aholining huquqiy ongini yanada yuksaltirish va ularga huquqiy maslahatlar berish – Notarial palataning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha "Facebook" va "Telegram" ijtimoiy tarmoqlarida "Notarius maslahati" kanali va sahifalari tashkil etilib, ular orqali 24/7 rejimida aholiga notariat sohasi bo'yicha bepul huquqiy tushuntirishlar va ularni qiziqtirgan savollarga javoblar berib kelinmoqda.

Bundan tashqari, Notarial palata tomonidan "Notarius maslahati" gazetasini chop etilishi yo'lga qo'yilgan. Gazetada notariat va huquq sohasining boshqa yo'nalishlari bo'yicha o'zbek, rus va ingliz tillarida turli maqolalar chop etib kelinmoqda, notariat sohasidagi kuzusli masalalarning yechimlari muntazam ravishda yoritilmoqda.

Notariuslar tomonidan sohaga oid 200 ga yaqin turli videoroliklar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi, televideniye va radio orqali onlayn ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etildi, notariat sohasidagi qonun hujjatlari "Audiobook" ko'rinishida tayyorlanib, notariuslar va keng ommaga tarqatildi.

Notarial palata tomonidan xalqaro aloqalarni o'rnatish va uni rivojlantirish borasida ham tegishli ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda Litva, Ukraina, Belarus, Ozarbayjon va Qozog'iston davlatlarining notariat sohasidagi tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida memorandumlar imzolandi, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari bilan ham hamkorlik memorandumlarini imzolashga kelishib olindi.

Yevropa va Osiyo notariuslari veb-simpoziumlarida faol ishtirok etilib, ma'ruzalar qilindi [10].

Bundan tashqari, Germaniyaning "GIZ" dasturi doirasida notariuslar uchun "Mediatsiya" mavzusida xalqaro seminar tashkil etildi, Belarus hamda Qozog'iston Respublikalari notarial palatalari bilan hamkorlikda notariuslar uchun "Elektron notariat" mavzularida onlayn-konferensiyalar tashkil etildi.

O'zbekiston notarial palatasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar bilan xalqaro hamjamiyatni tanishtirish maqsadida Saudiya Arabistoni, Ummon, Italiya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Ukraina, Belarus kabi o'nlab mamlakatlarda "Yangi O'zbekiston – yangi notariat" nomli maqola chop etildi.

O'zbekistonning notariat sohasidagi tajribasi Fransiya, Ozarbayjon va Tojikiston davlatlari delegatsiyalari tomonidan tashrif asosida yaqindan o'rganib ketildi.

Notarial palata tomonidan o'z faoliyati davomida nafaqat xalqaro munosabatlarga, balkim mahalliy hamkorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, Tashqi ishlar vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Ichki ishlar vazirligi (JIEBB), Sog'liqni saqlash vazirligi, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Yuristlar malakasini oshirish markazi, Advokatlar palatasi, "Yuksalish" va "Madad" nodavlat tashkilotlari bilan ham hamkorlik memorandumlari imzolangan.

Kelgusida Mudofaa vazirligi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Kadastr agentligi bilan ham hamkorlik aloqalarini o'rnatib, memorandumlarini imzolashga kelishib olindi.

Xulosalar

O'zbekiston Notarial palatasi 2021-yilning 3-dekabr kuni Xalqaro notariuslar ittifoqiga 91-chi a'zosi sifatida qabul qilindi.

Aytish joizki, bu O'zbekiston Notariat tizimiga, uning juda qisqa davr ichida olib borgan inqilobiy faoliyatiga berilgan yuksak bahodir, uning notariat sohasidagi qonunchiligini xalqaro standartlarga to'liq mos kelishini tasdig'idir.

Xalqaro notariuslar ittifoqining asosiy vazifasi – butun dunyo notariuslari faoliyatini muvofiqlashtirish, rivojlantirish va vazifalarini belgilashda ko'maklashish hisoblanadi.

Xalqaro notariuslar ittifoqiga a'zo bo'lish, birinchidan, O'zbekiston uchun rivojlangan davlatlarning notariat tizimlari bilan bir qatorda faoliyat yuritishini va ular bilan teng darajada o'zaro manfaatli hamkorlik qilish imkoniyatini yaratsa, ikkinchidan, notariuslarimiz tasdiqlagan hujjatlar dunyo miqyosida shubhasiz tan olinishini ta'minlaydi va O'zbekiston tajribasini xalqaro miqyosda targ'ib qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Joriy yilning oxirida Meksika shahrida bo'lib o'tadigan Xalqaro notariuslar ittifoqining Kongressida O'zbekiston bayrog'i ko'tarilib, O'zbekiston notariatiga a'zolik sertifikatini tantanali topshiriladi.

Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksalishiga hamda uning xalqaro indikatorlardagi o'rnini ko'tarilishiga hissa qo'shish – O'zbekiston notariatining asosiy maqsadidir.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan" № PD-4947 on February 7, 2017.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for further improvement of the notarial system as an institution aimed at preventing disputes" PD-3741 on May 25, 2018.
3. Decree of the president of the Republic of Uzbekistan "On measures to radically reform the notarial system in the Republic of Uzbekistan" № PD-5816 on September 9, 2019.
4. Journal of the Federal Republic of Germany "Poster". "Ney Uzbekistan – New notary", July, 2021.
5. The journal "Notary". The renewed notariat helps to improve the vision of the new Uzbekistan, Rome, 2021.
6. "Notarius nima?". Milliy notariat uyushmasi. [What is a notary? "National Notary Association"] 9 may 2013.
7. Asosiy notarial vazifalar. Amerika notariuslar jamiyati. [Basic Notarial Duties. "American Society of Notaries"] 2019-07-16.
8. Piombino A.E. (2011). Notarius uchun qo'llanma: prinsiplar, amaliyotlar va ishlar, milliy nashr [Handbook for Notaries: Principles, Practices and Works, National Edition]. East Coast Publishing. ISBN 978-0-9445606-9-3.
9. Masofadan elektron notarial tasdiqlash to'g'risida davlat qonunlari. Amerika erga egalik assotsiatsiyasi. [State Laws on Remote Electronic Notarization. "American Land Ownership Association"] 2020-10-21.
10. Notariuslar shtamp tushirishga va veb-kamerani olishga kirishmoqdalar [Notaries are starting to stamp and get a webcam]. 2017-06-12. Available at: ewikiuz.top/.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.